

Laylo SHARIPOVA

ARUZ
SABOQLARI



Laylo SHARIPOVA

ARUZ SABOQLARI

(Usuliy qo'llanma)

"Tafakkur" nashriyoti
TOSHKENT - 2018

83(50')

Sh 26

Sharipova, Laylo.

Aruz saboqlari [Matn]: usuliy qo'llanma/
L.Sharipova. - Toshkent: "Tafakkur", 2018 100 b.

KBK83(50')

Mas'ul muharrir:

E.Ochilov, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Sh.Ahmedova, filologiya fanlari doktori, professor

B.Jamilova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Rajabova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik kengash
navbatdan tashqari (11.12.2017) yig'ilishining qarori
asosida nashrga tavsiya qilindi.

ISBN 978-9943-24-139-8

© Laylo Sharipova 2018
© «Тафаккур» nashriyoti 2018

MUQADDIMA

Ushbu risola aruzni o'rganishni xohlaganlar uchun ilk saboqlar sifatida dunyoga keldi. Ma'lumki, Sharq mumtoz she'riyati, jumladan, o'zbek she'riyati nafaqat mazmun-mohiyati, balki jozibador, betakror ohanglari bilan ham e'tiborga loyiq, shu sababdan boqiylikka daxldordir. Ulug' shoirlarimiz asarlarini o'qir ekanmiz, ruhimiz yuksaladi, mumtoz kuy tinglagan kabi rohatlanamiz. Bunga asrlar davomida mukammallahib kelgan she'riy tizim aruz ham sababdir. Aruz Sharq mumtoz qo'shiqchiligin yuzaga keltirgan asosiy vositalardan biri sanaladi. Bu she'riy tizim ohanglarini ruhiyatiga jo qilgan inson "Shashmaqom" kuylarini nafaqat tinglaydi, balki his qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlan-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida shunday deyiladi: "Xalqimiz madaniy merosinining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiya tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rinn egallaydi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan"¹. Aruzni o'rganish, uning ohanglarini ruhimizga jo qilish ikki jihatdan foy-dali. Avvalo, mumtoz adabiyotni sevib o'qishga odatlanamiz. Ikkinchidan, maqomni jon qulog'imiz bilan tinglaymiz. Mumtoz adabiyotimiz yosh avlod tafakkurini

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlan-tirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent shahri, 2017-yil 17-noyabr. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 18-noyabr. – №233. – B.1.

boyitadi, ruhiyatini tozartiradi. Boy maqomimiz esa yoshlarning vazmin, kengfe'l, oqko'ngil, nekbin bo'lishlarini ta'minlaydi.

Aruz vaznini bilish, loaqal uning ohanglarini his qilishni o'rganish orqali biz qiyidagilarga erishamiz:

1.Sharq mumtoz she'riyatini o'zimiz xush ko'rib o'qiymiz.

2.O'zbek adabiyotining daho shoiri Alisher Navoiy merosini chuqur bilamiz va idrok etamiz.

3.Aruz vaznida she'r yozadigan yoshlarga ega bo'lamiz.

4.Sharq she'riyatini ingliz, nemis, qo'yilingki, dunyo tillariga aruzni his qilib tarjima qiladigan o'zbek tarjimonlari yuzaga kelishiga erishamiz.

5.Maqomlarimizni sevib ijro qiladigan hamda tinglaydiganlar safini kengaytiramiz.

Afsuski, bugun aruz vaznini atroficha biladiganlar juda kamaydi. To'gri, bu she'riy tizimdagi mukammallik va murakkablik bilan bog'liq. Hatto hazrat Navoiy aruzdan maxsus ta'lim olar ekanlar, bu saboq ancha vaqt davom etgan. Lekin aruzni o'rganish qiyin deb tursak, ko'p jihatdan yutqizamiz. Zamonaviy she'riyat aruzni qo'llayolmay qolishi mumkin, ayni damda, yosh avlod mumtoz she'riyatimiz go'zalligini anglashda qinalishi tayin. Shunday bo'lib borayotgani hech kimgasir emas. Yana bir jihat shuki, aruz vaznidagi she'rlarni yodlatishni bog'chadan boshlash zarur. Demak, bu vaznidagi asarlarni nafaqat filologlar, balki bog'cha murabbiylari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham o'qislari, yod olishlari zarur. Filologlar bilan hofizlar esa maxsus o'rganishlari lozim. Maktabning adabiyot darsliklarida aruz vazni haqida ilk saboqlar berib borilgan bo'lsa-da, bu borada natijalarimiz ko'ngildagidek emas. Shu ma'noda "Aruz saboqlari" usuliy qo'llanmasida aruz haqida mavjud ilmiy asarlardagi fikrlarni o'quv-

chiga mos tarzda soddalashtirishga intildik va nazariy xulosalarni mактаб darsliklaridagi misollar asosida dallashga urindik. Usuliy qo'llanmani bo'lajak bog'cha murabbiylari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, filologlar, musiqa maktablarining maqom yo'nalishiga saboq beruvchi ustozlar va ularning shogirdlari, yosh qalamkashlar mutolaa qilishlari mumkin.

Qadrli kitobxon! Biz ham aruzni o'rganishda davom etamiz. Bu boradagi o'z tajribalarimizni siz bilan o'rtoqlashdik. Ilk saboqlarimizda kamchiliklar bo'lsa, ma'zur tuting.

Mundarija:

1. Muqaddima.....	3
2.1-saboq. Aruz vazni va ilmi aruz tarixi xususida	5
3. 2-saboq. Bo'g'in va hijo.....	8
4.3-saboq. Asl ruknlar.....	11
5. 4-saboq. Asl bahrlar	14
6. 5-saboq. Ramal bahri. Fo'ilotun rukning zihofoti.....	18
7.6-saboq. Hazaj bahri. Mafo'iylun rukning zihofoti.....	23
8. 7-saboq. Ruboiy vaznlari	28
9. 8-saboq. Mutaqorib bahri.....	34
10. 9-saboq. Rajaz bahri	37
11. 10-saboq. Hazrat Navoiy "Xamsa"si vaznlari	40
12.11-saboq. Zamonaviy she'riyatda aruz	44
13.12-saboq. Zamonaviy aruz	50
14. Ilovalar	56
15. Atamalar lug'ati	63
16. Adabiyotlar ro'yxati.....	67